

Gulxayo ELMURADOVA,
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
 kommunikatsiyalar universiteti
 Mediamenegment va mediamarketing
 kafedrasi katta o'qituvchisi
 E-mail: g.elmuradova1991@mail.ru*

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Sh.N.Taylaqova taqrizi asosida

FORMATION OF MEDIA LITERACY IN PRESCHOOL CHILDREN BASED ON CHILDREN'S MEDIA CONTENT

Annotation

The article analyzes the sociological, legal, cultural, psychological, and art history of media education for preschool children in audiovisual media in Uzbekistan. As a modern direction of media literacy for preschool children, the essence, purpose, and tasks of the concept of preschool media education have been revealed.

Key words: preschool media education, media literacy, animation, media library, media creativity, media-educational game, media space.

ФОРМИРОВАНИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ДЕТСКОГО МЕДИАКОНТЕНТА

Аннотация

В статье анализируется социологическая, правовая, культурологическая, психологическая и искусствоведческая история медиаобразования дошкольников в аудиовизуальных СМИ Узбекистана. Как современное направление медиаграмотности дошкольников раскрыты сущность, цель и задачи концепции дошкольного медиаобразования.

Ключевые слова: дошкольное медиаобразование, медиаграмотность, анимация, медиатека, медиаворчество, медиаобразовательная игра, медиапространство.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEDIASAVODXONLIKNI BOLALAR MEDIAKONTENTLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda audiovizual mediada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-ta'limning sosiologik, huquqiy, madaniy, psixologik, haqida ijtimoiy – tarmoqlarda berib borilayotgan mediakontentlar tahlil qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mediata'lism zamonaviy yo'nalishi sifatida maktabgacha media ta'lism konsepsiyanining mohiyati, maqsadi, vazifalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha media ta'lism, mediasavodxonlik, animatsiya, media kutubxona, media ijodkorlik, media-ta'lism o'yini, media makon.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kontent tayyorlash va ushbu kontentlar mazmuni, sifati ko'p jihatdan jurnalist mahoratiga bog'liq. Bolalar uchun yoki bolalar fikri beriladigan axborotni tayyorlashda jurnalistning ma'lumotni qay darajada his eta olishidan ko'p narsa hal bo'ladi. Biroq, bolalar auditoriyasi uchun kontent tayyorlovchi telekanallarda aynan mediata'lism mutaxassisini mavjudmi? U har bir material ustida ishlayaptimi? Mediata'lism borasida matbuot vakillari orasida seminar trening va mashg'ulotlar olib borilayaptimi? Ushbu masala bolalarda mediasavodxonlikni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mediaolamdag'i vaziyat o'tgan o'n yilliklar davomida bolalarning axborot qabul qilishdagi xavfsizligi haqidagi tasavvurlarni sezilarli ravishda o'zgartirdi. Hozirda dunyoning rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha yoshdagi bolalar jurnalistikasining rivojlanishi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati naqadar ortib borayotgani bu jahbada ilmiy izlanishlarni taqazo etmoqda. Ko'plab mamlakatlarda maktabgacha yoshdagi bolalarga oid audiovizual mediamateriallardagi muammolarga o'z vaqtida yechim topilmayotgani sabab yosh avlod tarbiyasi va ruhiyatida namoyon bo'layotgan salbiy ta'sirlar ham bunday tadqiqotlarga nisbatan zarurati oshirmoqda. Bolalar qabul qilayotgan har qanday vizual axborotlarni mediata'lism va mediasavodxonlik talablarini doirasida tahlil qilish, saralash lozim. Zamonaviy internet olamida bolalarni yolg'iz qoldirish xavfli. Unda turli mavzularga yo'naltirilgan juda ko'p saytlar mavjud. Ulardan ba'zilari bolalar va o'smirlarga mo'ljalangan.

So'nggi yillarda bolalar jurnalistikasida o'z imkoniyatlarni, kuchli va zaif tomonlarini qayta anglashga, o'ziga xosliklarini yanada aniqroq ko'rsatishga undaydigan sifat jihatidan yangi axborot holati vujudga keldi. Bu bolalarga oid telekanallarning jamiyat hayotidagi ahamiyati, maktabgacha yoshdagi bolalar jurnalistikasining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan ahamiyatini ko'rsatib berishni talab etadi. Chunki mazkur telekanallarni faqatgina xabardor qilish vazifasi bilan cheklanmay, hodisalarini tushinish, tahlil etish va baholashga ham undashi lozim. Shu boisdan, bolalar jurnalistikasida mediaviy tarbiya ruhini singdirish vazifasi birlamchi maqsadga aylangan. Ma'lumotlar usuli va tarqatish yo'llari nazoratining mushkullashgani aynan bolalar bosma nashrlarini tadqiq etish, bolalar mediata'lism taraqqiyotini o'rganish dolzarb masala ekanini ko'rsatadi.

Mediata'lism dunyodagi har bir mamlakat fuqarosining so'z erkinligi va axborot olish huquqiga oid asosiy huquqidir va demokratiyani qo'llab-quvvatlash vositasidir. Mediata'lism barcha davlatlarning milliy o'quv dasturlarida, qo'shimcha, norasmiy hamda uzlusiz ta'lism tizimida joriy etish uchun tavsiya etiladi. Jahonda bolani rivojlantirish va uning faolligini oshirishda mediavositalardan foydalanish texnologiyalarini, innovatsion usullarini takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning olamni anglashlarini ommaviy axborot vositalari materiallari asosida shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, global axborot maydonida bolalarni turli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalash va axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mediakontentlar bolalarda nafaqat fiklash balki nutqi rivojlanish, fikrni nutqda ifoda etish ko'nikmalarini ham shakllantirishi lozim. Mediapsixologlar televizor va internet bu jarayonda faol OAV ekanligini ta'kidlaydi. Shu ma'noda kompyuter o'yinlari, kattalar tomonidan boshqarilmaydigan ko'ngilochar dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lism va tarbiyalash sohasidagi standartlar talablariga javob bermasa, maktabgacha yoshdagi bolaning aqiliy

rivojlanishining teskari yo‘nalishga, ya’ni nutqiy rivojlanishdan orqada qolishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu ko‘p qirrali tushunchaning ko‘plab talqinlari mavjud. Mediapedagogika sohasidagi mutaxassis D. Lemish, u “Mediasavodxonlikning media matnlarini tahlil qilish uchun quyidagi muhim narsalardagi pozitsiyalar: muallif mafkurasi; rejani belgilagan, media matnni yaratish jarayoni va uning auditoriya tomonidan idrok etilishi shart” – deb baholaydi. Ko‘pgina o‘zgarishlar va qo‘shimchalarga qaramay, biz maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan media savodxonligi ta’rifini olishga harakat qilamiz. Ushbu maqsadga erishish uchun biz A.V.Fedorovning ta’rifiga e’tibor qaratamiz, “Media savodxonligi - media ta’lim, media tadqiqotlar natijasi. Media savodxonligi rivojlangan shaxs media matnlarini idrok etish, tahlil qilish, baholash va yaratish, ularning ijtimoiy-madaniy va siyosiy kontekstini tushunish qobiliyatiga ega” [Fedorov,2007, 22-bet]. Shuningdek, A.V.Fedorovning ta’rifiga e’tibor qaratgan holda, biz mediasavodxonlikning ta’rifini olamiz. Mediata’limning so‘nggi konsepsiylarida ommaviy axborot vositalari mediamaateriallariga nisbatan tanqidiy fikrashni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarida yolg‘on ma’lumotlar va buzilishlarni aniqlash bo‘yicha amaliy tajribani to‘plash, uzatilayotgan mediamaateriallarning manipulyativ ta’siriga qarshi kuchli immunitetni shakllantirish kabi jihatlar e’tiborga olinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishda ularni Vatanga sodiq, fidoyi insonlar etib tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish uzviylik va uzlusizlikni talab qiladigan dolzarb jarayon sifatida “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida muhim o‘rin egallaydi [1].

Qizig‘i shundaki, u yoki bu ommaviy axborot vositalariga murojaat qilganda, bolalar har doim ham o‘z harakatlarida mustaqil emaslar, chunki bolaning qaysi OAVlarni o‘qishini ota-onalar aniqlaydilar, chunki ular ota-onalar uchun ma’qul hisoblanadi [2]. 4-8 yoshdagi bolalar ko‘pincha ota-onalari va yaqin qarindoshlari bilan televizor tomosha qilishadi, ular bolalarning “Televizor menyusi”ni belgilaydilar: masalan, butun dunyoda aksariyat oilalarda bitta televizor bo‘ladi va uning masofadan boshqarish pulti odatda kattalarda bo‘ladi [3]. Bolalar bu holatdan mamnun bo‘lmaydilar, albatta, va ular o‘z tanlovida mustaqil emasligini anglaydilar hamda bu holatlar ularning boshqa ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan munosabatiga ta’sir qiladi. Bunday vaziyatda biz “axborot zo‘ravonligi” deb ataladigan tushuncha haqida gapirishimiz mumkin, uning natijasi ichki noqulaylikdir. Chunki boshqa birovning fikri “shaxsning irodasiga qarshi ruhda o‘chmas iz qoldiradi” [4]. Bolalarda axborot zo‘ravonligining oqibatlari stress, psixoz, boshqarib bo‘lmaydigan harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bola fiziologik va psixologik rivojlanish davrida bunday holatlarda bo‘lishi mumkin va o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda maktabgacha media ta’lim yagona amaliy xarakterga ega bo‘lganligi sababli nazariy jihatdan - bular maktabgacha ta’lim media-pedagoglari bir nechta nashrlari va maktabgacha yoshdagi bolaling shaxsiyatining ma’lum psixologik-pedagogik xususiyatlarini media-ta’lim orqali rivojlantirishga bag‘ishlangan ishlari biz maktabgacha media ta’limiga oid quyidagi masalalar bo‘yicha nufuzli fikrlarini bilish uchun yetakchi media o‘qituvchilari va jurnalistlar bilan birgalikda so‘rovnama tashkil etdik:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mediasavodxonlikni o‘rgatish dolzarb va zarur deb hisoblaysizmi?
2. Sizning fikringizcha, maktabgacha media ta’limning vazifalari nimalardan iborat?
3. Sizningcha, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan media-ta’lim darslarini qurishning eng yaxshi usuli qanday ommaviy axborot vositalari?
4. Sizningcha, animasion filmlarga (kompyuter, audio ertaklar, video, tele multfilmlar) tayanish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun media-tarbiyaning barcha muammolarini hal qila oladimi?
5. Maktabgacha ta’lim muassasalari va maktabgacha yoshdagi bolalar oilalarida pedagogik-psixologik jihatdan to‘g‘ri tanlangan animasion filmlarni sifatlari tanlash natijasida shakllangan media-kutubxonani yaratish zarur deb hisoblaysizmi?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mediasavodxonligini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun maktabgacha tarbiyachilarga qanday animasion filmlarni tavsya qilasiz?
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil etish uchun ota-onalar va tarbiyachilarga qanday animasion filmlarni tavsya qilgan bo‘lardingiz?

Mavjud ijtimoiy-madaniy vaziyatdan kelib chiqqan holda, media-ta’lim bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, shuni yodda tutish kerakki, media ta’lim informatika emas va kompyuter bilan ishlashni o‘rgatish maqsadini qo‘ymaslik kerak. O‘yin sharoitida bolalarga turli xil ma’lumot materiallari (vizual materiallar sifatida) berilishi mumkin, shu bilan birga ko‘rilgan yoki tinglangan narsalarni muhokama qilish juda muhim. U kattalar tomonidan bolalar va o‘smyrlar uchun yaratilgan ommaviy axborot vositalari to‘plami va media muhitda mustaqil aloqa tizimi sifatida qaraladi. U yosh avlodni jamiyatning intellektual va ma’naviy potensiali bilan tanishtiradi, katta avloddan yosh avlodga axborot uzatishni ta’minalaydi. Shu bilan birga, bolalarning o‘zaro muloqot qilishiga imkon yaratadi. Uning ko‘magida bilan yoshlар dunyonи o‘rganadilar.

Tahsil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar jurnalistikasining bolalar dunyoqarashini kengaytirishga, hayotiy rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan tarbiyani shakllantirish funksiyasi kontekstida ko‘rib chiqiladi. Bunday OAV materiallari bolalar bilimlarini kengaytiradi, uning ruhiy olamini boyitadi. Albatta, “ma’lumot uzatish kanallari tizimining keng rivojlangani bois bolalar tarbiyasiga katta xissa qo‘shadigan vosita bu - bolalar uchun mo‘ljallangan jurnalistik materiallardir”. Bolalar uchun ixtisoslashgan OAVlar bolalar tomonidan hayotiy faktlarni tanlash, ularni sharhlash va targ‘ib qilish, voqelik to‘g‘risidagi tegishli ijtimoiy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tarqatish, turli ijtimoiy qatlamlarning axborot ehtiyojlarini qondirish uchun “mas‘ul” asosiy manba sifatida talab qilinadi.

Bolalar jurnalistikasi maxsus ijtimoiy institut ekanligini inobatga olib aytish joizki, ushbu faoliyat o‘z navbatida jamiyat bilan bog‘liq muayyan vazifalarni ham bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Ma’rifiy kontentlar, hikoyalari va qiziqarli ma’lumotlar orqali bolalarda o‘qishga bo‘lgan istakni oshirish mumkin. Bu turli mavzular bilan bog‘liq bo‘lgan dasturlar, kitoblar yoki ilg‘or ma’lumotlar orqali bolalar o‘zlarini rivojlantirishlari mumkin.

Ta’limiy o‘yinlar va dasturlar: o‘yinlar va dasturlar orqali bolalarga madaniyat, matematika, va boshqa fanlarni o‘rganishlari mumkin. Bu o‘yinlar o‘rganish jarayonini o‘yinlar va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali o‘rganishga aylanadi.

Kreativlikni oshirish: bolalar mediakontentlarini yaratish orqali ularning kreativligini rivojlantirish mumkin. Rassomlik, video tahrirlash, musiqa yoki dasturlash kabi sohalarda ularning qiziqishlarini qollab-quvvatlash foydali bo‘ladi.

Ta’limiy videolar va interaktiv kontentlar: video darslar, ta’limiy animatsiyalar, interaktiv dasturlar orqali, bolalar fanlarni o‘rganishlari va tushunchalarini kuchaytirishlari mumkin.

Qiziqarli vaqt o'tkazish: televizor, radio dasturlari, podkastlar va You Tube kanallari orqali, qiziqarli va foydali mediakontentlarni kuzatishlari va mediasavodxonlikni shakllantirishda ulardan foydalanishlari mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik: ota-onalar va media mutaxassislar hamkorlikda bolalar uchun mos mediakontentlarni tanlash va bolalar tarbiyasida qo'llash mumkin.

Mediasavodxonlikni rivojlantirishda, bolalar uchun mos mediakontentlarni tanlash, ularning ilg'orligi, qiziqishlari, va rivojlanayotgan xususiyatlari bo'yicha tartibga solish juda muhimdir. Bu turdag'i dasturlar va kontentlar ularning o'zlarini o'rganishlariga, ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga va o'z fikrlarini ifodalashga yordam berishi kerak.

Xulosa va takliflar. Aksariyat ota-onalarning o'zlarini farzandida mediasavodxonlik asoslarini qanday shakllantirish bo'yicha zarur bilimga ega emaslar. Shuning uchun, albatta, bolalarning media-ta'lmini imkon qadar erta boshlash kerak, ular turli xil va janrlardagi media matnlari bilan tanishishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga media savodxonligini o'rgatishni dolzarb va zarur deb bilaman, chunki bu yosh audiovizual ma'lumotni idrok etishga sezgir, uning xususiyatlaridan biri uzatilgan tasvirlarning ko'rinishidir. Mediasavodxonlik bolalarda vizual ma'lumotni og'zaki ma'lumotga aylantirish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu ularning nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga animasion filmlar va boshqa ommaviy axborot vositalarining eng yaxshi namunalari asosida mediasavodxonlikni o'rgatish bolalarning axloqiy va estetik tarbiysi uchun foydali bo'ladi, shuningdek, o'quvchi shaxsining media kompetensiyasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ommaviy axborot vositalaridagi matnlardagi qahramonlarning ichki xususiyatlarini ochib beradigan vositalarni aniqlash va o'z ishlarida foydalanish qobiliyatini o'rgatish muhimdir, bu orqali ularning munosabatlarini tahlil qilishga o'tish mumkin. Zamonaliv axborot muhitida mediata'l'm - media bilan muloqot qilish madaniyatini, tanqidiy fikrlash va kommunikativ qibiliyatni, bolalarda atroimizdag'i olam haqidagi bilimlarini shakllantirish hamda mediatexnika yordamida o'z fikrini ifodalashning har xil turlarini o'rgatish imkoniyatlarinining mayjudligini hisobga olib aytadigan bo'lsak, mediata'l'm - ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari asosida bola shaxsini rivojlantirish jarayoni sifatida qabul qilinmoqda.

Bolalar uchun mediakontentlari tanlash, ularning yoshiga va mavzuga qarab o'zgaradi. Masalan, kichik bolalar uchun animatsion filmlar, qahramonlar haqida hikoyalar, rang-barang kartina filmlar yoki o'quvchi davomida ko'proq ma'lumot beradigan o'yinlar kabi narsalar qiziqarli bo'lislari mumkin. Batafsilroq ma'lumot olish uchun, ularning qiziqishi bo'lgan mavzular va faoliyatlar orqali ular uchun mos mediakontentlarni topishingiz mumkin. Umuman olganda, ularning fikr-mulohazalarini va ularning qiziqishi bo'lgan narsalarni qabul qilish juda muhim.

Zamon bolalari bugungi kunda video o'yinlarga ko'proq qiziqadi. Ba'zi video o'yinlar ijodiy va fikr-mulohaza qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'l ko'rsatadi. Misol uchun, puzzle o'yinlari yoki strategiya o'yinlari o'rganish, muammolarni hal qilish va natijalarga yetishishni o'rganishga yordam berishi mumkin.

Ijodiylik va ijtimoiylik: Bir nechta o'yinlar jamoatchilikni qo'llab-quvvatlash va birgalikda ishlashga yo'l ko'rsatadi. Online o'yinlar, do'stlar bilan o'ynash imkoniyatini beradi va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishi mumkin.

Sifat va mavzu: Turli xil o'yinlarning sifati mavzusiga qarab o'zgaradi. Ba'zi o'yinlar o'rganishni, qiziqishni oshirish uchun mo'ljallangan, boshqalar esa ko'proq rivojlanish va strategiya asosida yaratilgan.

Bolalar uchun o'yin tanlashda, ularning qiziqishi va umriga mos keladigan, rivojlanishga yordam beradigan o'yinlarni topish muhimdir. O'yinlarni o'zi o'ynash, ularning fikr-mulohazalarini eshitish va ular bilan o'rtacha o'ynash orqali, ularning qiziqishi va o'zlarini rivojlantirishlarini tushunishga yordam beradi.

Animatsion filmlar va multfilmlar: Ko'proq ma'naviy ta'sir qoldiruvchi, o'rganishga yo'l ko'rsatuvchi, va ayniqsa, o'zgaruvchan fikrlar bilan to'dirilgan multfilmlar bolalar uchun qiziqarli bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plami. – T., 2022. B.39.
2. Frolova T. I., Obraztsova A. Yu. (2017) Mediagramotnost' shkol'nikov v ot-senke uchiteley i roditeley: rezul'taty issledovaniy [Schoolchildren's Media Literacy as Seen by Teachers and Parents: Results of a Research]. Vestn. Mosk. un-ta. Ser. 10: Zhurnalista 4: 58—77. (In Russian)
3. Filatkina G. S., Davletshina M. I. (2020) Motivatsionnye faktory televizionno-gogo potrebleniya rossiyskikh detey i podrostkov (na primere Moskvy, Nizhnego Novgoroda, Rostova-na-Donu) [Motivational Factors of Television Consumption Among Russian Children and Teenagers: a case study of Moscow, Nizhniy Novgorod and Rostov-on-Don]. MediaAlmanah 1: 60—67. DOI: 10.30547/me-diaalmanah.1.2020.6067 (In Russian)
4. Borshchov N. A. (2010) Informatsionnoe nasilie v setevom obshchestve [Information Violence in a Net Society]. Vestn. Chelyabinsk. gos. un-ta 19 (31): 48—52. (In Russian)
5. Andersen, N., Duncan B. & Pungente, J. J. (2020). Media ta'l'm - Bolalar va ommaviy axborot vositalari: rasm. Ta'l'm. ishtirot etish. Geteborg: YUNESKOning bolalar va zo'ravonlik bo'yicha xalqaro hisob-kitob markazi Nordicomdag'i ekranida, pp. 139-162.
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'l'm fan va madaniyat tashkiloti YUNESKOga yo'llangan tavsiyalar. In: Ommaviy axborot vositalari va raqamli asr uchun ta'l'm. Vena: YUNESKO, 2022, 273-274-betlar.
7. Duncan, B. A Media savodxonlik: Muvaffaqiyatlari media tadqiqotlari uchun ingrediyyentlar, 2010. 265-288 betlar.
8. Jon Pungent, S. J. Barry Duncan va boshqalardan. Media savodxonligi bo'yicha qo'llanma, Ontario Ta'l'm vazirligi/36-72betlar.
9. Laura Lederer, 2020. Boshqa davlatlar media ta'l'm sohasida nima qilmoqdalar? <http://www.medialit.org/reading>.
10. Media Network, ommaviy axborot vositalaridan xabardorlik. english/teachers/media_education/media_education_chronology.cfm
11. Media tadqiqotlari markazi. Mediasavodxonlik tarixi . 255-300 betlar.
12. Qosimova.N. Toshpo'latova.N. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: O'zDJTU, 2014. 108-b.
13. Toshpo'latova N. Bolalar masalalarini ommaviy axborot vositalarida yoritishda jurnalist mas'uliyati. Ilmiy maqolalar to'plami, –T.: 2014.
14. Jalilova B. O'zbek bolalar publisistikasi. –T.: Fan, 2006. –B. 5.
15. Atakulova.E. Zamonaliv matbuotda bolalar nashrlari:tadrij, tahlil va talqin. Mag. Diss. –T.: O'zDJTU, 2012. 89-b.

16. Yunusov.M Mustaqillik davrida O‘zbekistonda bolalar jurnalistkiasining taraqqiyoti:yutuqlar, muammolar va yechimlar. (bosma nashrlar misolida). Diss. – T.: O‘zMU, 2019. 128-b.
17. Mamatova.Ya, Sulaymonova.S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma, – T.: “Extremum-Press” MCHJ. 2015. 103-s.
18. Djumanova.S. Mediata’lim ommaviy kommunikatsiya mahsuli sifatida. Diss. – T.: O‘zDJTU, 2014. 117-b.